

**TURIZM SEKTORINING TURKIYA IQTISODIYOTIGA
KO'RSATGAN TA'SIRI**

Gulimmatov Humoyun Javlonbek o'g'li

University of world economy and diplomacy (UWED)

Tashkent, Uzbekistan

xumoyungulimmatov@gmail.com

Anotatsiya: Turizm sanoati mamlakat iqtisodiy o'sishiga boshqa sohalarga qaraganda samarali ta'sir ko'rsatadigan eng yaxshi soha hisoblanadi. Turizm sanoati orqali iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy usul bo'lganligi sababli Turkiya davlati o'z turizm sohasiga katta e'tibor qaratdi va rivojlantirdi. G'arb va Sharqni bog'lovchi Turkiya o'zining betakror tabiati, geografik joylashuvi, madaniyati va tarixi orqali turizm sohasini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega. Lekin, ba'zi hal qilinishi kutilayotgan muammolar sabali mamlakat turizm sohasi bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada turizm sanoatining Turkiya davlat iqtisodiyotiga ta'siri, bir qancha muammolar tahlil qilinadi va ushbu sohaning hozirgi holatini yanada yaxshilash uchun bir qator yechimlar taklif qilinadi.

Tayanch so'zlar: turizmdan daromad, turizm muammolari, turizm eksporti

Abstract: The tourism industry is the best sector that has an effective impact on the country's economic growth compared to other sectors. Since the development of the economy through the tourism industry is the main method, the Turkish state has paid great attention to and developed its tourism sector. Connecting the West and the East, Turkey has the opportunity to further develop the tourism sector through its unique nature, geographical location, culture and history. However, the country's tourism sector is facing a number of difficulties due to some problems that are yet to be solved. This article analyzes the impact of the tourism industry on the Turkish state economy, several problems, and proposes a number of solutions to further improve the current state of this sector.



Keywords: *tourism revenue, problems of tourism, tourism export*

Аннотация: *Туристическая индустрия является лучшим сектором, который оказывает эффективное влияние на экономический рост страны по сравнению с другими секторами. Поскольку развитие экономики через туристическую индустрию является основным методом, турецкое государство уделяло большое внимание и развивало свой туристический сектор. Соединяя Запад и Восток, Турция имеет возможность дальнейшего развития туристического сектора благодаря своей уникальной природе, географическому положению, культуре и истории. Однако туристический сектор страны сталкивается с рядом трудностей из-за некоторых проблем, которые еще предстоит решить. В этой статье анализируется влияние туристической индустрии на экономику турецкого государства, ряд проблем и предлагается ряд решений для дальнейшего улучшения текущего состояния этого сектора.*


Ключевые слова: *доходы от туризма, проблемы туризма, экспорт туризма*

Kirish: Turkiya o'zining geografik joylashuvi, xususan, G'arb va Sharqni bir-biriga bog'lovchi ko'prik bo'lganligi va o'zining go'zal tabiati sababli boshqa mamlakatlarga qaraganda turizm sohasini yanada rivojlantirishda ko'proq imkoniyatlarga ega deb hisoblanadi. XX asrdan boshlab xalqaro turizmning rivojlanishi tufayli sohilbo'yi dam olish maskanlari ham rivojlana boshladi. Turkiya o'zining noyob tabiati, boy tarixi va yuqori darajada rivojlangan dengiz turizmi sanoati bilan ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga doimo katta e'tibor qaratadi. 2023-yilda Turkiya turizm sohasida dunyo mamlakatlari orasida 6-o'rinni egalladi¹. Biroq hozirda turizm sohasining yaxshi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar mavjud bo'lib, hukumat ularni aniq strategiyalar orqali hal qilishi kerak. Ushbu maqola Turkiya turizm sanoatini tahlil qilib, turizmdan keladigan foyda va zararlarni muhokama qiladi.


¹ GoWithGuide <https://gowithguide.com/blog/tourism-in-turkey-statistics-2024-insights-through-numbers-for-planning-your-trip-5786>

Asosiy qism: Turkiya davlati turizm sanoati orqali aholisining bandligini ta'minlash, infratuzilmalarini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm sanoati mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatganligi sababli dunyo mamlakatlari orasida Turkiya turizm sanoati bo'yicha eng yaxshi rivojlangan davlatlar qatorida yetakchi o'rinlarda turadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, pandemiya sababli turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shadigan hisssasi 2019-yildagi 5,4% dan 2020-yilda 1,9% ga kamaygan (1-jadval). 2023-yilda pandemiya tugashi natijasida Turkiya turizmi yaxshilandi va YaIM ga qo'shadigan hisssasi 12% ga yetdi.



Jadval-1: Turizm sanoatining Turkiya YaIM ga qo'shadigan hisssasi 2017-2023(foizda)²



Jadval-2: Turkiya turizm sanoatidan oladigan umumiy daromadi 2017-2023³

Pandemiyadan oldingi ma'lumotlarga qaraganda, 2019-yilda davlat

² The global economy https://www.theglobaleconomy.com/Turkey/international_tourism_revenue_to_GDP/

³ Road Genius <https://roadgenius.com/statistics/tourism/turkey/>



turizm eksportidan 42,85 milliard dollar daromad olgan. Lekin COVID-19 pandemiyasi turizm sanoatiga sezilarli ta'sir ko'rsatganli sababli pandemiya paytida ya'ni 2020-yilda 15,17 milliard dollar daromad olgan. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, davlat turizmdan 55,87 milliard dollar daromad olgan va bu pandemiyadan keyin turizm sanoati qayta tiklanishidir.

Muammolar va yechimlar

Turkiya turizmning ijobiy tomonlari orqali o'ziga sayyohlarni jalb qilishga harakat qilayotgan bir paytda ba'zi salbiy jihatlar sababli qiyinchilikka duch kelmoqda. Asosiy muammolarga quyidagilar kiradi:

1. Mavsumiylik muammosi

Turkiya turizm sohasi, asosan, dengiz kurortlari yoz oylariga moslashganligi uchun qish faslida sayyohlar kamayib ketadi va shu yerdagi mehmonxonalar va boshqa turizm obyektlarining daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Atrof-muhitga zarari

Turistik hududlarda sayyohlar oqimi tufayli atrof-muhitga katta salbiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Natijada, bu uzoq muddatda turizm sohasi pasayishiga olib keladi.

3. Madaniy va tarixiy merosning yo'q bo'lib ketish xavfi

Turkiya davlatida tarixiy va madaniy meroslar tijorat uchun foydalanishmoqda va bu sayyohlar tomonidan ularga zarar yetkazilishi natijasida madaniy va tarixiy merosning yo'q bo'lib ketishi mumkin.

4. Sayyohlar xavfsizligi

Oxirgi yillarda siyosiy, tabiiy notinchliklar sayyohlar xavfsizligiga tahdid solgan, Shu sababli, turizm sanoatiga ya'ni Turkiyaga sayyohlar tashrif buyurushiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Turkiya turizm sanoatining pasayish ehtimolligi borligi sababli mamlakat bu muammolarning oldini olish uchun bir qancha choralar ham ko'rmoqda.

1. Turizmni rivojlantirish strategiyasi

Turkiya Madaniyat va Turizm vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “**Turkiya Turizm Strategiyasi-2023**”⁴da mamlakat turizm sohasini yanada takomillashtirish

⁴ <https://uz.eturbonews.com/turkiye-tourism-strategy-unveiled-for-next-5-years/>



rejalarini bayon qilgan. Ushbu strategiyada turizmni diversifikatsiyalash ya'ni faqat plyaj emas, balki madaniy, eco-turizmlarni ham rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

2.Raqamli marketing va brend yaratish

“GoTurkey.com” va “Turkish Riviera” kabi platformalarda reklamalarni oshirish orqali sayyohlarni jalb qilishni oshirish.

Turkiyaga tashrif buyuruvchilar sonini yanada oshirish va turizm sanoatini rivojlantirish uchun muallif quyidagi takliflarni beradi:

1.Barqaror turizm oqimi

Turkiya faqat mavsumiy turizm bilan chegaralanib qolmasdan qishki turizmni ham rivojlantirishga kerak. Bunga har xil qishki sport o'yinlarini tashkil etish bilan erishishi mumkin.

2. Atrof-muhitni asrash

Turkiya reklamalarida katta e'tibor berishi va uni yorqin tasvirlash orqali sayyohlarni atrof-muhitni asrashga jalb qila oladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turizm sohasi Turkiya YaIMiga katta tasir ko'rsatmoqda va bu sohani yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, pandemiya sababli sohada kuzatilgan pasayishni qayta tiklash va muammolarni bartaraf etish uchun “**Turkiya Turizm Strategiyasi-2023**” ni amalga oshirmoqda. Turizm sanoatni diversifikatsiya qilish, atrof-muhitni asrash, barqaror turizm oqimi orqai mamlakat turizm sanoatini yanada rivojlantirishi va u orqali davlat iqtisodiyotiga turizmdan oladigan daromad ta'sirini yanada oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omonjon Umarov and Parizoda Mirboboyeva Umidjon qizi (2023) “MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA)”, *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8(8), pp. 78–80. doi: 10.54613/ku.v8i8.809.
2. Timothy, D.J. (ed.) (2018) *Cultural Heritage and Tourism*. Cham: Springer. Available at: <https://doi.org/10.1007/978-3-319-91692-7>



3. Mengu, C. (2018) 'Approaches on the future of Turkey tourism in 2023', *European Journal of Educational and Social Sciences*, 3(2), pp. 164–184. Available at: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/566057>

Statistik ma'lumotlar va manbalar:

4. eTurboNews, 31 January. Available at: <https://uz.eturbonews.com/turkiye-tourism-strategy-unveiled-for-next-5-years/>
5. **TheGlobalEconomy.com** (2020) *Turkey: International tourism revenue, percent of GDP*. Available at: https://www.theglobaleconomy.com/Turkey/international_tourism_revenue_to_GDP/
6. **Road Genius** (2023) *Turkey Tourism Statistics - How Many Tourists Visit?*. Available at: <https://roadgenius.com/statistics/tourism/turkey/>
7. Republic of Türkiye Ministry of Culture and Tourism (n.d.) *Tourism Receipts and Expenditures*. Available at: <https://www.ktb.gov.tr/EN-249307/tourism-receipts-and-expenditures.html>